

San'at SARIYEV,  
Urganch davlat universiteti O'zbek adabiyoti  
kafedrasida dotsenti

## “GO‘RO‘G‘LI” DOSTONLARINING UYG‘UR VERSIYASI QO‘LYOZMALARI XUSUSIDA

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada “Go‘ro‘g‘li” eposi uyg‘ur versiyasining qo‘lyozma nusxalari haqida so‘z boradi. Shuningdek, O‘rta Osiyo versiyalariga ham to‘xtalib o‘tiladi.

**Kalit so‘zlar:** “Go‘ro‘g‘li”, qo‘lyozma va toshbosma nusxalar, turkiy xalqlar eposi, versiya, Uyg‘ur, O‘rta Osiyo.

**Аннотация.** В статье анализируются рукописные экземпляры уйгурской версии эпоса “Кёроглы”, а также изучаются его среднеазиатские версии.

**Ключевые слова:** “Кёроглы”, рукописные и литографические экземпляры, эпосы тюркоязычных народов, версия, Уйгур, Средняя Азия.

**Annotation.** The article analyzes the manuscript copies of uygur version of the epos “Gorogly”. Besides that its Central Asian version is also studied.

**Key words:** “Gorogly”, manuscripts and lithographic copies, Turkic nations, epos, version, Uygurs, Central Asia.

Uyg‘ur xalq dostonlari haqidagi tadqiqotlar XIX asrning ikkinchi yarmida boshlangan. Buyuk qozoq olimi Cho‘qon Valixanov 1858–1859-yillarda uyg‘ur dostonlarining versiyalari haqidagi ilk izlanishlarini olib borgan. U dostonlarni badiiy adabiyot tarkibiga kiritgani holda ilk bora ularning qo‘lyozmalarini to‘plagan [1: 20].

Uyg‘ur xalq dostonlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqot markazlaridan biri Qozog‘iston hisoblanadi. Qozog‘iston olimlari tomonidan uyg‘ur xalq dostonlarini o‘rganishga kuchli e‘tibor qaratilgan.

“Go‘ro‘g‘li” dostonlarining uyg‘ur qo‘lyozma nusxasi “Chambil shohi Ahmadxon va uning hukmronligi ostida Oyxon, Kunxon, Bulbulxon, Chingizxon, Hasaxon degan tojdor podshohlar bor edi”, deya boshlanadi. Undagi Oyxon, Kunxon, Bulbulxon, Chingizxon kabi toponimlarning o‘ziyoq mazkur versiyaning uyg‘ur versiyasi ekanligini ko‘rsatadi. Qo‘lyozmada Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi, Doniyorning Ahmadxonning xotini Aziz Ko‘z oyimni olib qochib ketishi (ushbu sujet “Arab Rayhon” dostonining o‘zidir), Layli Qir degan ot bilan Doniyordan o‘ch olishga borishi (o‘n bir yoshida) va Doniyorning qizini olib qochishi (bu esa o‘zbek “Go‘ro‘g‘li”sidagi “Or olish” shoxobchasining o‘zidir), Ko‘hi Qof tog‘idan Og‘a Yunus parini olib kelib uylanishi, Avaxxonni olib kelishi va uni Zaynabshohga uylantirishi (Zaynabshoh Qoraxonning qizi), Qoraxon va Xoldorxonning Go‘ro‘g‘li yurtiga bostirib kelishi va Ahmadxon Sardorni asir qilishi, asar oxirida Go‘ro‘g‘li tomonidan ozod qilinishi tasvirlanadi.

“Go‘ro‘g‘li” dostonlariga xos xususiyatlardan biri shuki, ularda Go‘ro‘g‘li “Nafas o‘g‘li” deb ta‘riflanadi. Bu degani, Go‘ro‘g‘li hazrat Alining nafasidan bo‘lgan yoki Hazrat Alining nafasi tekkan qahramon hisoblanadi. G‘arb (Kavkaz va turk) versiyalarida Go‘ro‘g‘li otasining ismi Ali (ozarbayjon versiyasida) yoki hazrat Ali (turk),

sharqiy versiyalarda Jig‘olibek (O‘rta Osiyo) bo‘lib, hazrat Ali esa unga, ya‘ni Go‘ro‘g‘liga nafas qiladi va Go‘ro‘g‘li “Nafas o‘g‘li” degan nisbaga sazovor bo‘ladi.

Uyg‘ur versiyasida ham Go‘ro‘g‘li hazrat Alining nafasidan dunyoga kelganligi aytiladi. Zulfar oyimga hazrat Ali nazar qiladi va u homilador bo‘lib qoladi. Bu sujet Bibi Maryamning Iso alayhissalomni dunyoga keltirishi bilan bog‘liq voqeaga o‘xshash. Zulfar oyim bunday sharmandalikdan ko‘ra o‘limni afzal bilib, Xudodan o‘ziga o‘lim tilaydi va vafot etadi. Uni homilasi bilan dafn qiladilar va Go‘ro‘g‘li dunyoga keladi.

“Amir Go‘ro‘g‘li” dostonida Go‘ro‘g‘li Chambil shahrining hokimi Ahmadxon podshoning singlisi Zulfar oyimning o‘g‘lidir. Chambil Go‘ro‘g‘ligacha barpo qilingan shahar sifatida tasvirlanadi. Go‘ro‘g‘li go‘rda tug‘iladi va qamish orqali nafas olib yashaydi. Go‘rda tug‘ilish motivi O‘rta Osiyo versiyalariga xos bo‘lib, uyg‘ur versiyasiga ham uning ta‘siri kuchli bo‘lgan. Hazrat Alining otboqari Qambar vali buni ko‘rib, go‘rkashlar orqali Ahmadxonga xabar beradi. Aynan mana shu epizod Xorazm versiyasining 9590-qo‘lyozmasi bilan bir xildir. Ahmadxon uni saroyga keltiradi. Go‘rda tug‘ilgani uchun unga “Go‘ro‘g‘li” deb ot beradilar. Go‘ro‘g‘li o‘q otish va qilich o‘ynatishni yoshligidan mukammal egallaydi.

Keyingi voqealar Ahmadxon va uning xotini Azim Ko‘z oyim voqealariga bag‘ishlangan. Hazrat Alining duldulini boqadigan Qambar valiyning otlaridan Ola Baytal qabristonga kirib ketadi. Qarasa, bir baytal ochiq go‘rda bir pahlavondek bolani emizayotgan ekan. Baytal ketganidan keyin borib qarasa, “*pehonasini nurli, o‘zi xatna qilingan, tirnoqlari olingan, Buvayi Qambar valiy bolani bu holda ko‘rib hayron bo‘lib turdi*”.

Ahadxonning iltimosi bilan Buvayi Qambar “*Go‘rda tug‘ilgani uchun Go‘ro‘g‘li bo‘lsin*”, deb chaqaloqning

o'ng qulog'iga azon, chap qulog'iga takbir aytadi. Ola Baytalni ham beradi.

Dunyo folklorshunosligida o'zbek va uyg'ur "Go'ro'g'li" dostoni sujetlari o'zaro yaqinligi qayd qilib o'tiladi. Bu ikkala versiyada ham qahramonning go'rda tug'ilganligi ta'kidlanadi. Karl Rayxlning ma'lumot berishicha, uyg'ur versiyasining og'zaki variantida Chambil hukmdori Ahmadxonning singlisi Zulfar oyim g'oyibdan homilador bo'lib qoladi. Zulfar oyim chorbog'da o'z ko'shkida o'tirganida shu yerdan otda o'tib ketayotgan hazrat Ali uni ko'rib, orzu qiladi. Keyin Zulfar oyim nomusga qolgandan ko'ra, Xudodan o'lim so'raydi va uning iltjolari qabul bo'lib vafot etadi. Lekin uning homilasi go'rda tug'iladi va uni Ola biya emizadi. Uni Ahmadxon o'g'il qilib oladi va unga Go'ro'g'li deb ism qo'yadi [4: 4].

Ushbu ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, "Go'ro'g'li" eposining uyg'ur versiyalarini nashrga tayyorlaganda qo'lyozmalarga ham asoslanilgan. Uyg'ur dostonlarining og'zaki variantlari qo'lyozmalardan farq qilmaganligi bois qo'lyozmalar juda keng miqyosda ommalashgan.

**II shoxobcha.** Doniyor Layli Qir otliq tulporini minib yo'lga chiqadi. Go'ro'g'li shu tulpordan nasl olaman, deb Azim Ko'z oyimning olib qochilishiga sabab bo'ladi. O'zbek "Go'ro'g'li" versiyasida Go'ro'g'lining yangasi Gulandomdan Arab Rayhonning o'zi suv so'rab, uni qo'lidan tortib, otga mindirib olib qochadi. Uyg'ur versiyasida esa Doniyor o'z otini Go'ro'g'lining otiga yuborish evaziga uning yangasi Azim Ko'z oyimni suv uzatishga rozi qiladi va uni olib qochadi. Uni to'xtatolmagan Go'ro'g'lining "Qizil guldek yuzi somondek sarg'ayadi".

**III shoxobcha.** Go'ro'g'li 11 yoshida Tajan daryosidan G'irotda uchib o'tib, Jayhun shahriga keladi. Mazkur shoxobchada "Madat bergin menday g'arib qulingga" munojot she'ri berilgan bo'lib, ushbu munojot sayyor va tayyor matnlar qatoriga kiradi. Go'ro'g'li Doniyorning yetti yashar qizini olib qochadi. Doniyor qirq ming yazid bilan uning izidan tushadi. O'zbek versiyasida esa Arab Rayhon Go'ro'g'lini bir o'zi quvgan. Voqealarning shu nuqtasida "Kelgin ertlar yakka-yakka" she'ri berilgan bo'lib, bu ham "Hikoyati Go'ro'g'li sulton"da bor. Go'ro'g'li qo'shin bilan jang qilib uni qirib tashlaydi. U otida Tajan daryosidan uchib o'tadi. Doniyor esa uchib o'taman, deb daryoning o'rtasiga tushib ketadi.

**IV shoxobcha.** Go'ro'g'li uxlab yotganida Xizr alayhissalom, qirq Chilton, 12 imom keladi. Ular Go'ro'g'lining ust-anjomini yechib, yetti joyiga o'z muhrlarini bosadilar. Shunda ular "Tila-tilagingni" deganda, Go'ro'g'li: "dong'im, shuhratim olamga yoyilsa, umrim uzun bo'lsa, kuch jihatdan hech kim teng kelmasa, deb tilaydi.

Unga 120 yosh va tilaklarini tilab olib berdilar.

Ushbu sujetlarning barchasi "Hikoyati Go'ro'g'li sulton"da keltirilgan. To'g'ri, "Hikoyati Go'ro'g'li sulton" hajman ancha katta. Biroq unda ham Go'ro'g'lining tug'ilishi, qirq yigiti va otiga ega bo'lishi, uylanishi

voqealari bir doston ichiga ixchamlashtirilgan. Ushbu uyg'ur versiyasida negadir qirq yigit haqida so'z bormaydi.

**V shoxobcha.** Voqealar davomida 5-sujet liniyasi, 5-shoxobcha boshlanadi. "Go'ro'g'li" Isfahon sari safar qiladi. U Isfahondan qilichbozlik qoidalarini o'rganib kelishni istaydi. "Madat bergin sen emdi" munojotini o'qiydi. Bu ham "Hikoyati Go'ro'g'li sulton"da bor. Go'ro'g'li yetti kunda Isfahon shahriga keladi. Go'ro'g'li "Yo'lbars bilaklik, qoplon yuraklik..." deya ta'riflanadi.

Go'ro'g'li Isfahon shahrining darvozasidan Registonga kirib boradi. Shu yerda Hasanxonni ko'radi. Hasanxon Isfahon shahrining polvoni Xoldorxonning o'g'li edi. Uni olib Chambilga yetti kunda yetib keladi. (Hasanxonning Isfahondan olib kelinishi "Hikoyati Go'ro'g'li sulton"da ixchamlashtirilgan bo'lib, bu haqida bir jumlada aytib o'tiladi, xolos.)

**VI shoxobcha.** Go'ro'g'li va Hasanxon Chambilbel cho'llariga kelganida voqealar Og'a Yunus pari tomonga burilib ketadi. "Hikoyati Go'ro'g'li sulton"da bu voqea ixchamlashtirilib, dostonning boshida bir jumladagina aytib o'tiladi. U Ko'hi Qof podshosining qizi edi. Og'a Yunus fol-rom ochdirib, 21 yoshlik Go'ro'g'lining 12 yoshlik bolani (Hasanxonni) otiga mindirib olib ketayotganini ko'radi. Parizod o'zining baxtini Go'ro'g'lida ko'radi. Kuzzat ismli tog'asi uni qaytarmoqchi bo'ladi. Ammo pari uning gapiga quloq osmaydi. Unga tog'asi o'z mo'yidan berib, uni tutatsa yordamga borajagini aytadi.

Ushbu mo'y tutatish epizodi o'zbek va turk versiyasidagi "Hasanxon" dostonida ham berilgan. Unda Go'ro'g'li o'z mo'yidan Hasanxonga beradi.

Og'a Yunus pari qirq kaniziga taxtini ko'targizib, Chambil cho'llariga kelib saroy qurdiradi. Shundan so'ng Doniyorning qizini ham Go'ro'g'luga nikohlab beradilar. Bu xabarni eshitgan Misqol pari ham o'z kanizaklarini olib, Go'ro'g'luga kelib tegadi. Bu to'yni eshitgan Gulnor pari ham "Bog'i Eram"dan kelib, o'zini Go'ro'g'luga nikoh qildiradi. Bu bilan Go'ro'g'lining davlati yanada gullab-yashnaydi.

Ahadxon tushida "baland tog'ning ustidan yiqildi". Tushni yo'rib berdilarki, "davlat uning qo'lidan boshqa odamga o'tib ketadi". Ahmadxon qirq kecha-kunduz to'y berib, "Podsholik yotga ketguncha sanga qolsun", deb taxtini Go'ro'g'luga topshiradi.

**VII shoxobcha.** Shundan so'ng voqealar Avazxon tomonga burilib ketadi. Shu yerda "Hali ham armoning bormu, qirq yigit" she'ri aytiladi. Ushbu she'r "Hikoyati Go'ro'g'li sulton"ning boshida berilgan. Shu yergacha bo'lgan barcha sujetlar, shoxobchalar qisqartirilib, bir jumla bilan aytiladi va "Avazning keltirilishi" dostoni boshlanib ketadi.

Uyg'ur qo'lyozmasida esa voqealar shu yerga yetgunicha 3 ta shoxobcha berilgan. Unda tasvirlanishi-cha, Go'ro'g'li qizilboshlarning shunday adabini beradiki, "Go'ro'g'li keldi", desa uning yig'lab turgan bolasi tinar edi.

Karl Rayxlning “O‘zbek va uyg‘ur versiyalari sujet va motiv jihatidan ancha yaqinlik kasb etadi”, degan fikrida asos bor.

Qo‘limizdagi uyg‘ur qo‘lyozmasi bilan, XIX asrning boshlarida Qozon, Toshkent va Kogon shaharlarida toshbosma usulida chop qilingan “Hikoyati Go‘ro‘g‘li sulton” va “Qissayi Avazxon” (“Avazning arazi”) dostonlari aynan bir bo‘lib, faqat “o‘zbek tilidan uyg‘ur tiliga tarjima qilingan holda ko‘chirilgan”, degan xulosa uyg‘otadi. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi, Doniyorning Azim Ko‘z oyimni olib qochishi, Go‘ro‘g‘li ham Doniyorning 7 yashar qizini olib qochishi, Og‘a Yunus parining olib kelinishi va asar oxirida Xoldorxonni Go‘ro‘g‘lining yurtiga bostirib kelib, Ahmadxonni asir olishi va Go‘ro‘g‘li tomonidan ozod qilinishi voqealari uyg‘ur qo‘lyozmasida, keyinchalik, Toshkent, Qozon, Kogon toshbosmasida qisqartirilgan. Buning asosiy sababi toshbosmalar chop qilingunga qadar o‘zbek “Go‘ro‘g‘li” dostonlari ham uyg‘ur qo‘lyozmasidagi kabi bir necha sujetdan (shoxobcha)dan iborat qo‘lyozma bo‘lgan. Chunki “Go‘ro‘g‘li” dostonlari qo‘lyozma holda g‘arbiy versiyalarida Ozarbayjonda, sharqiy (O‘rta Osiyo) versiyalarida esa O‘zbekiston hududida to‘liq holda yozuvga olinib, kitob holda tarqatilgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, g‘arbiy versiyalar – turk, kurd, bolgar tatarlari (Bolgariyada) va Qrim tatarlari orasida barcha shoxobchalari bilan to‘liq holda yozuvga ko‘chirilmagan. Ushbu versiyalarda eposning faqat ayrim shoxobchalari va doston qo‘shiqalaridan ayrim namunalargina yozuvga olingan.

Bizningcha, uyg‘ur versiyasi o‘sha davrda O‘rta Osiyodagi sharqiy o‘zbek versiyasi asosida paydo bo‘lgan to‘liq sujetni qamrab olgan og‘zaki variantlar qo‘lyozma nusxalariga tayanilgan holda paydo bo‘lgan. Chunki “Hikoyati Go‘ro‘g‘li sulton” va “Avazning arazi” dostonlarida uyg‘ur versiyasida berilgan to‘rtta dostonning qisqacha mazmuni bir misradagina berib o‘tiladi. Shuningdek, uyg‘ur versiyasi tarkibiga kirgan Avazning olib kelinishiga bag‘ishlangan “Hikoyati Go‘ro‘g‘li sulton” dostonlarining matnlari uyg‘ur versiyasi bilan aynan bir xil va yaqin. Demak, uyg‘uristonlik kotiblar sharqiy o‘zbek “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining toshbosma nashridan oldingi to‘liq qo‘lyozmalari bilan tanish bo‘lgan va sharqiy o‘zbek versiyasining qo‘lyozmalari asosida uyg‘ur versiyasining qo‘lyozmalari shakllangan. “Hikoyati Go‘ro‘g‘li sulton” va “Avazning arazi” dostonlarining toshbosma nusxalari paydo bo‘lishidan oldin eposning deyarli barcha shoxobchalarini qamrab olgan qo‘lyozmalar mavjud bo‘lgan va toshbosma nusxalar paydo bo‘lgach, ular asta-sekin kamayib, yo‘qolib ketgan. Chunki baxshilar ham “Kitobdagisi to‘g‘ri, kitobdan aytmoq kerak”, deya faqat toshbosma nusxalardagi va ular asosida ko‘chirilib kitobat qilingan qo‘lyozmalardagi dostonlarni, xususan, toshbosmada bosilgan “Hikoyati Go‘ro‘g‘li sulton” va “Avazning arazi” kabi dostonlarni kuylay boshlaganlar. Uyg‘ur qo‘lyozmasida “Avazning arazi” shoxobchasi berilmagan. Avazning arazlab ketishiga

bag‘ishlangan “Avazning arazi” shoxobchasi “Hikoyati Go‘ro‘g‘li sulton”ga qo‘shib yuborilgan.

Uyg‘ur qo‘lyozmasidagi ayrim she‘rlar “Hikoyati Go‘ro‘g‘li sulton”dagi she‘rlarga nisbatan bo‘g‘in jihatidan soddalashtirilgan.

“Hikoyati Go‘ro‘g‘li sulton” dostonining toshbosmasidagi she‘riy misralar o‘n bir bo‘g‘indan, uyg‘ur qo‘lyozmasidagi misralar esa yetti bo‘g‘indan iborat.

Akademik To‘ra Mirzayev “Hikoyati Go‘ro‘g‘li sulton” dostonining 2012-yildagi nashri so‘zboshisida qissadostonning o‘zbek va qozoq versiyalarini qiyoslab, she‘riy matnlardagi farqlarni ko‘rsatib o‘tadi.

Ushbu ma‘lumotlarga tayanib ta‘kidlash o‘rinliki, sharqiy o‘zbek “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining mukammal, to‘liq qo‘lyozmalari toshbosmalar chop qilingunga qadar mavjud bo‘lgan. Bu mukammal qo‘lyozmalar asosida toshbosmaning ixcham varianti tayyorlangan va chop qilingan. Shu toshbosmalar va undan oldin mavjud bo‘lgan to‘liq qo‘lyozmalar sharqiy tarmoqqa mansub turkiy xalqlarga, jumladan, qozoq va uyg‘ur xalqlariga tarqalgan va bu xalqlarning “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining og‘zaki va qo‘lyozma, shuningdek, toshbosma nusxalarining shakllanishiga, sujetlar va motivlarning rivojlanishiga turtki bo‘lgan.

Xullas, sharqiy o‘zbek versiyasiga mansub qo‘lyozmalar boshqa turkiy xalqlar uchun asos rolini o‘tagan.

Biz uyg‘ur qo‘lyozmasi va og‘zaki sharqiy o‘zbek versiyasining nashr variantini qiyosiy tahlil qilib, shunday xulosalarga keldik:

1. Qrim shohi “Xoldorxon bilan urush haqida”gi doston va Go‘ro‘g‘lining yigitlaridan biri – “Xoldorxon pahlavon haqida”gi dostonlar alohida shoxobcha bo‘lgan. Buni 8042-inv. va uyg‘ur qo‘lyozmasida ko‘rishimiz mumkin. Chunki ularga bag‘ishlangan sujetlar alohida dostonlar sifatida berilgan.

2. Og‘zaki o‘zbek nashrida esa Ergash Jumanbulbul o‘g‘li bu shoxobchalarni qo‘shib kuylagan. Qo‘shganda ham bir-birining mazmuniga zarracha ham ta‘sir qilmaydigan darajada improvizatsiya qilib kuylagan. Sujetlar bir-biriga singib ketgan.

Demak, Qrim shohi Xoldorxon va pahlavon Xoldorxon dostonlari ilgari alohida dostonlar bo‘lgan va baxshilar tomonidan nomlariga asoslanib qo‘shib yuborilgan. Natijada og‘zaki variantning hajmi birmuncha kengaygan. Agarda biz qo‘lyozmalarda qisqalikka, mufassallikka ko‘proq e‘tibor qaratilganligini hisobga olsak, bu dostonlarning og‘zaki variantlari birmuncha keng hajmli shoxobchalar bo‘lganligiga ishonch hosil qilamiz.

Uyg‘ur qo‘lyozmasining oxirida quyidagi ma‘lumotlar berilgan:

*“Maralveshlik Mulla Salay kotibning 1331-hijriy 26-jumadul avvalining dushanbasi (milodiy taxminan 1915-yillar) ko‘chirib, tamomlagan qo‘lyozmasiga asosan, enisarlik (yangisarlik) xalq dostonchisi Ubaydulla hoji aytib bergan va umr eli xotirasidagi “Amir Go‘ro‘g‘li” dostonidan foydalanib tayyorlandi.”*



Ushbu qo'lyozma asosida 1994-yilda "Amir Go'ro'g'li" kitobi nashr qilingan bo'lib, unda "Amir Go'ro'g'li" va "Bo'z yigit" dostonlari o'rin olgan. 432 betdan iborat kitob "Shinjon yoshlar nashriyoti"da nashr qilingan. 1915-yilda arab yozuvida ko'chirilgan bu nusxa uyg'ur versiyasini tiklashda va nashrga tayyorlashda asos bo'lgan.

Demak, dostonlarni qo'lyozmalar asosida nashr qilish Uyg'uristonda ancha ilgaridan amalga oshirilgan bo'lib, 1994-yilda yana bir nashr dunyo yuzini ko'rdi.

Aslini olganda "Go'ro'g'li" eposi dunyo tamadduni yaralgandan beri shakllangan katta epik sujetdir. Biroq shu kungacha "Go'ro'g'li" dostonlarining soni qanchaga yetganidan qat'i nazar qator epik, lirik va dramatik sujetlarni o'zida birlashtirdi. Masalan, "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonining (9590-inv.) qo'lyozma nusxasini olib qaraydigan bo'lsak, qahramonning tug'ilishiga bag'ishlangan epik sujetlar negizida bir qancha lirik va dramatik sujetlar birlashadi.

Shuningdek, o'zbek xalq dostonlarining qo'lyozmalarida og'zaki ijodda qadimdan yashab kelayotgan ayrim sujetlarning dostonlar tarkibiga qayta ishlangan holda kiritilishi, ulardan ijodiy jarayonda foydalanish, ya'ni poetik talqin qilish masalalari ham namoyon bo'ladi. Masalan, uyg'ur qo'lyozmasida Avazxonning zangilar shohi qizining qo'lidagi qimmatbaho uzugi va ro'molini olib ketishi sujetiga "Uch og'a-ini botirlar" ertagidagi sujetning ta'siri bor. Yoki "Malikai ayyor" dostonidagi devlar, parilar, yer osti dunyosi – Torikiston shahri, Malikaning kaptarga, Go'ro'g'lining uzukka aylanishi kabi evrilishlar – bularning barchasi qadimiy mifologik sujetlar talqini natijasidir.

Islom bilan bog'liq obrazlar va voqealar, jumladan, to'rt choharyor, o'n ikki imom, qirq chilton kelib Go'ro'g'lining orqasiga urishlari, Go'ro'g'li qiyin ahvolda qolganida yordamga kelishlari (ayniqsa, sharqiy o'zbek versiyalarida) yoki "Xirmondali" dostonidagi tarixiy shaxs Oshiq Oydin pir mo'g'ullar bosqinidan ellik yillar oldin yashab o'tganligi va uning dostonlarda talqin qilish orqali berilganligi va hatto unga "Go'ro'g'li" eposidan maxsus bitta shoxobcha, shuningdek, xalq dostonlaridan esa alohida maxsus doston bag'ishlanganligini aytib o'tishimiz joiz.

Shuningdek, "Xirmondali" dostonidagi yigit-qiz kurashi sujeti qadimiy turkiy xalqlar, jumladan, massaget qabilalari eposi "To'maris" haqidagi afsonalardan, sharob to'la jom tutish epizodi ham bevosita massaget qabilalari udumlaridan olinganligini aytib o'tish joiz.

Demak, xalq dostonlarining, jumladan, qo'lyozma dostonlarning shakllanishi va tarqalishida ushbu epik sujetlar muhim o'rin tutgan. Ko'rinadiki, ayrim epik sujetlar interpretatsiya va improvizatsiya jarayonini boshidan kechirgan va dostonlar zamiriga singib ketgan.

She'riy matnlarda ham buning yaqqol namunalarini ko'rishimiz mumkin. Masalan, "Xirmondali" dostonida "Suv so'rash" sujeti ham ramziy epik sujet sifatida katta o'rin tutadi. Qadim turkiy xalqlardan qolgan an'ana, odat badiylik kasb etgani holda epik sujetga aylanib, bizgacha yetib kelishida "Go'ro'g'li" dostonlari vosita bo'lgan.

"Suv so'rash" – oshiqning o'z sevgisini izhor qilishi. Qiz oshiqning sevgisini qabul qilsa, unga suv uzatadi. Oshiq suvni ichib jomni qizga uzatar ekan, qiz suvdan bo'shagan jomni olish uchun qo'lini yigit tomon uzatganida uning bilagidan ushlab, otga mindirib olib qochib ketadi.

Qizni olib qochish ayrim turkiy xalqlarda, jumladan, qoraqalpoq udumlarida hozirda ham mavjud. Bu udum nihoyatda qadimiy bo'lib, Islom dini kirib kelganidan keyin ko'pchilik xalqlar bu udumdan voz kechgan.

Xalq ijodida qahramonning haqiqiy qahramonligini ko'rsatish uchun u bajaradigan qahramonliklardan biri – qiz olib kelish yoki biror o'g'ilni asrab olish bo'lgan. O'g'il olib qochib, uni asrash yoki qiz olib qochib, unga uylanish qahramonning qahramonligini ko'rsatuvchi Islomgacha bo'lgan qadimiy odatlardan hisoblanib dostonlar tarkibiga badiiy tafakkur mahsuli sifatida shakllangan epik sujet bo'lib kirgan.

Albatta, ko'rinadiki, har bir epik sujetning asosida biror xayoliy yoki hayotiy asos, voqelik yotadi va shu epik sujetning bizgacha yetib kelishida qo'lyozma dostonlar ham munosib o'rin egallab kelgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Uyg'ur xalq ag'iz ijadi. Nashrga tayyorlovchi G.Sadvagasov. – Olmata: Fan, 1983.
2. Uyg'ur xalq ijodi. – Shinjon, 1984. 260-bet.
3. Metin Ekichi. Xalq folklorining eng nodir namunalari. – Anqara, 2004. 2-bet.
4. E.Tatliq va boshqalar. Emir Go'ro'g'li. Uyg'ur xalq dostonlari. 1-jild. Tuzuvchi va nashrga tayyorlochi E.Tatliq. – Urumchi, 1986.